

## TA'LIM MAQSADLARINI LOYIHALASHTIRISHNI INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIGA TADBIQ QILISH MASALALARI

M. Fayziyeva <sup>1</sup>

### Annotatsiya:

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish jarayonida ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishning nazariy-metodologik asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritilgan. Muallif pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarning o'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini oshirish, bilish faoliyatini rivojlantirish, ta'limga mas'uliyatni kuchaytirishdagi o'rnini atroflicha tahlil qiladi. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchisining loyihalash kompetensiyasini shakllantirish, ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich modellashtirish va ilg'or interfaol uslublarni joriy etish zaruriyati asoslab beriladi. Maqolada xorijiy va mahalliy tajriba, me'yoriy-huquqiy asoslar va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar o'rganilgan. Loyihalash texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiyalash orqali dars samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib beriladi.

*Kalit so'zlar:* ta'lim maqsadlarini loyihalashtirish, pedagogik innovatsiyalar, ingliz tili o'qitimi, o'quv-biluv faoliyati, motivatsiya, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol uslublar, kompetensiya, loyihalash texnologiyasi, umumiy o'rta ta'lim.

XX asr boshlarida yuzaga kelgan yangiliklarni faoliyatga kiritish, tadbirda qo'llash ta'lim sohasini yangi pag'onaga olib chiqdi. Ma'lumki, yangiliklarni qo'llash, dastlab mahsulot ishlab chiqarish sohaslarida amal qilgan va natijada, texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlari o'rgana boshlandi. Shunday qilib, sohaga yangiliklar kiritish haqidagi fan – innovatika paydo bo'ldi.

Innovatika ta'sirida turli sohalar, jumladan, ta'lim - maktab ta'limini yangilashga say-harakat qilgan turli ijtimoiy-pedagogik qarashlar va harakatlar vujudga kela boshlaydi". Mazkur jarayonlarda olimlar e'tibori quyidagi asosiy yo'nalishlarga, ya'ni, yangi pedagogik tizimlar va ular unsurlarini ta'lim amaliyotiga joriy etish, ta'lim sohasida yangi boshqaruv texnologiyalarini va dasturlashgan tizimlarni joriy etishga qaratilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, pedagogik innovatsion jarayonlarda ta'lim maqsadlarini loyihalash G'arbda 1970 yillar oxirlaridan, mamlakatimizda esa mustaqillikka erishilganidan so'ng olimlar tomonidan maxsus o'rganila boshlangan. Jahon pedagogik-ilmij jamoatchiligining mavzuga qiziqishi maxsus innovatsion xizmat, nashriyot, jurnallarda innovatsion maqolalar ko'rinishida bo'lmoqda. Xususan, YUNESKO huzurida ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, jahonning turli mamlakatlaridagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda, pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

BMTning "Ming yillik deklaratsiyasi" doirasida 2021-2030 yillar uchun mo'ljallangan "O'rtacha tezlik strategiyasi" ("Medium-Term Strategy for 2021-2030")da esa mazkur davrda o'qitish jarayonini faollashtirish, ta'lim sifatini oshirish, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning yagona malaka talablarini ishlab chiqish asosida til o'rganish kompetentlik darajasini dinamik oshirish xaritasiga erishildi.

Loyiha - (lotin tilida: "projekt"- "oldinga tashlangan", "andoza") -insonlarning jamoaviy, tashkiliy, mustaqil izlanishga undovchi, muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat shaklidir.

Loyihalash - maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratiladi va uni o'zgartirish yo'llari va yechimlarini topishga zamin yaratadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilgan loyihalarning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi darslarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi va ingliz tilini o'qitishda samarali natijalarni beradi. Shu maqsadda, respublikamizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniy, ta'limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi xalqaro muloqot va davlatlararo kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida ingliz tilini o'rganishda ta'lim maqsadlarini loyihalash texnologiyalarini takomillashtirishni talab qilmoqda va bu yuzidan, kelajakda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy omili sifatida ta'lim muassasalarida ularni tatbiq etishga imkon beradigan moddiy-texnik bazalar yaratilib, o'quv sinflari xorijiy tillarni samarali o'rganishga yordam beradigan zamonaviy texnik uskunalar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanmoqda.

<sup>1</sup> Fayziyeva Maftuna Kamolovna, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

O'quv-biluv faoliyati - o'qituvchi tomonidan belgilangan ta'lim maqsadlariga erishish uchun o'quvchilar tomonidan o'quv topshiriqlarini (bu holatda: ingliz tilidan mashqlarni) bajarish asosida o'z-o'zini rivojlantirish faoliyati.

O'quv-biluv faoliyati ikki ma'noda ishlatiladi:

1) agar, o'quvchi yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallasa, amaliy jihatdan yangi kompetensiyalarni qo'lga kiritisa, u holda o'quv faoliyati amalga oshgan bo'ladi;

2) motivatsiyaga asoslangan bilish jarayonlari ostida kechadigan ta'limiy jarayon hisoblanadi.

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyatini pedagogik innovatsiya asosida tashkil eta bilishi hamda boshqarishi, o'z pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni ishlab chiqqan bo'lishi, ularni kundalik faoliyatida ta'lim jarayoniga tatbiq eta olishi, pedagogik texnikaga ega bo'lishi, o'z faoliyatini loyihalashtira olishi, chet tili o'qitishning bosqichma-bosqich (step-by-step) yaxlit modelini yarata olishi zarur. Demak, ingliz tili o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan turli yangi mohiyatdagi vazifalar ko'lami juda keng bo'lib, ularning barchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish lozim. O'zbekistonda ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi, bilimli bo'lish va shaxs iste'dodlarini rag'batlantirish kabi tamoyillar ham shuni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning quyida asosiy 3 maqsadlari keltirilgan:

1.O'quvchilarda o'quv-biluv motivatsiyasini oshiradi;

2.O'quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantiradi;

3.Tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi va keyingi o'quv faoliyatiga rag'bat sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz tili o'qituvchilari ta'lim maqsadlarini loyihalashtirishda quyidagi vazifalardan kelib chiqib, o'z faoliyatini modellashtiradi:

-o'quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalar, kompyuter, Internet, HR va AI imkoniyatlaridan to'g'ri va unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- taqdim qilingan o'quv materialidagi eng muhim g'oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- dars samaradorligini oshirish, o'rganilayotgan o'quv predmetiga zamonaviy ta'lim texnologiyalar orqali motivatsiya hosil qilish.

Zamonaviy loyihalangan darslar tahsil oluvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga hatto, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Binobarin, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida loyihalash texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor berilayotgani alohida dolzarblik kasb etib, ta'lim jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini kengaytiradi.

Ingliz tilini o'qitishda loyihalash masalalari o'qituvchining ta'lim – tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qituvchisining ta'lim maqsadlarini loyihalashi murakkab jarayon bo'lib, bunda o'qituvchi pedagog-tadqiqotchi sifatida o'z-o'zini takomillashtirishga intilish motivatsiyasini shakllantirishi lozim.

Pedagogik faoliyatda har qanday loyihalashning tayanch nuqtasi texnologik jarayon hisoblanadi. Binobarin, zamonaviy ta'limda ta'lim maqsadlarini loyihalash va tegishli texnologiyalardan foydalanish umumiy o'rta ta'limning ham mazmun ham tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish masalasi bilan bevosita bog'liq holda hal etiladi.

Adabiyotlar va tadqiqotlar tahlilidan mamlakatimizda har tomonlama yetuk komil shaxsga doir milliy qarashlar aynan Yangi O'zbekiston poydevorini qurish yillarida demokratik va huquqiy qadriyatlar tizimida talqin qilinganligini ko'rish mumkin. Ta'lim jarayoni ham uning har bir bosqichida mana shu yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berishi taqozo qilindi. Yangi bosqichda barkamol shaxs shakllanishiga doir barcha vazifalarni bir to'xtamga keltirish, mazkur maqsadning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, oliy ta'lim tizimi uchun joriy etish mexanizmlarini belgilash kabi vazifalar ham dolzarblik kasb eta boshladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda bilimlarni egallash ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan talablarni shakllantirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish, ta'lim oluvchilarning ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratishda ta'limiy texnologiyalarning o'rni beqiyos. Shu sababli, bugungi tez o'zgaruvchan sharoit o'quvchilarda tashabbuskorlik, dinamiklik va konstruktivlik, yangilikka

intiluvchanlik kabi sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Ingliz tili o'qituvchisi butun hayoti davomida mustaqil ta'lim olishga intiluvchan, yangi texnologiyalarni egallagan va ulardan foydalanishni tushunishi, mustaqil qaror qabul qila oladigan ijtimoiy va bo'lajak kasbiy muhitga moslashuvchi, stressli (hayajonli) holatlarga tayyor va ulardan tez chiqa oladigan bo'lishini talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son.
- [2]. Salimovna, A. C. (2023). *Teaching children how to set adequate goals and strategies. finland" modern scientific research: topical issues, achievements and innovations"*, 14(1).
- [3]. Бургин М.С. Инновация и новизна в педагогике // Сов. педагогика. 1989. № 12. -С.36-40.
- [4]. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. (Анализ зарубежного опыта) – Рига, НПЦ “Эксперимент”, 1998; Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике: Дисс. д-ра пед. наук. М., 1994. - 365 с.
- [5]. Яковлева, Н.О. Педагогическое проектирование инновационных систем [Текст]: дис. ... д-ра пед. наук / Н.О. Яковлева. - Челябинск, 2003. - 355 с.; Яковлева, Н.О. Теоретико-методологические основы педагогического проектирования [Текст]: монография / Н.О. Яковлева. - М.: Информационно-издательский центр АТиСО, 2002. - 239с.
- [6]. О.П.Жиянов “Педагогик таълим мақсади, мазмуни ва тамойиллари“
- [7]. Обруева Г.Х. О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. Вестник Челябинского государственного университета, (22), 2010. – С.100-102.